



OG'ZAKI VA YOZMA NUTQDA TILNING TASVIRIY IFODALARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Najmiddinova Durdona

Shayxontohur tumani 262-maktab ingliz tili o'qituvchisi

durdonann@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi ahamiyati va ularning til boyligiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritadi. Frazeologiya har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi va frazeologizmlar xalqning madaniyati, an'analari va tarixini aks ettiradi. Perifraza va tasviriy ifodalar tilning rang-barangligini oshiradi, nutqqa jozibadorlik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi, shuningdek, ularning ma'nolari va kontekstga qarab ishlatilishi tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy ifodalar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologik birliklar, perifraza, tasviriy ifodalar, tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, stilistika, ma'no, kontekst, nutq.

Abstract: This abstract explores the importance of phraseological units in linguistics and their contribution to the richness of a language. Phraseology plays a crucial role in highlighting the unique characteristics of each language and reflects the culture, traditions, and history of the people. It discusses how periphrasis and figurative expressions enhance the expressiveness and appeal of speech, analyzing their meanings and usage depending on context. The article also compares and contrasts figurative expressions in English and Uzbek.

Key words: Phraseology, phraseological units, periphrasis, figurative expressions, linguistics, English language, Uzbek language, stylistics, meaning, context, speech.

Аннотация: Тезис исследует важность фразеологических единиц в лингвистике и их вклад в богатство языка. Фразеология играет ключевую роль в



выявлении уникальных характеристик каждого языка и отражает культуру, традиции и историю народа. В статье рассматривается, как перифразы и образные выражения увеличивают выразительность и привлекательность речи, анализируется их значение и использование в зависимости от контекста. Также проводится сравнение образных выражений в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологические единицы, перифраза, образные выражения, лингвистика, английский язык, узбекский язык, стилистика, значение, контекст, речь.

Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologik birliklardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal, tasviriy ifodalar va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Perifraza, (yun. periphrasis — tasviriy ibora; kinoya, istiora) - ya'ni tasviriy ifoda ham yozma nutqda, ham og'zaki nutqda foydalaniladigan frazeologik til birligi hisoblanadi. Perifraza, asosan, badiiy adabiyot tilida, publitsistik va og'zaki nutqda uchraydi, ilmiy nutqda esa tasviriylikdan xoli bo'ladi va termin sifatida qo'llanadi. Funktsional jihatdan perifrazaning ikki turi farqlanadi: hamma tomonidan qabul qilingan, hamma tushunadigan perifraza (frazeologizmlar, hikmatli iboralar) va vaziyatga bog'liq bo'lgan, mazmuni, ma'nosi muayyan matngagina aloqador bo'lgan individual perifraza (bularning ba'zilari izchil qo'llanish natijasida 1-turdagi perifrazalar qatoriga o'tadi). Shu bilan birga badiiy, obrazli perifrazalar (oq oltin — paxta, zangori olov — gaz, po'lat qush — samolyot kabi) va mantiqiy perifrazalar (mas, evfemizmlar, tabular) o'zaro farqlanadi. Aksariyat perifrazalar otli birikmalar bo'lib, metafora, metonimiya, sinekdoxa singari ko'chimlar asosida yuzaga keladi¹.

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. - B. 80.



O'zbek tilshunosligida Tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan, qochish imkonini beradi, notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan [illatlarni fosh qilish](#), ulardan kulish va ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifodalar predmet, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi²:

Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyini qo'lga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlar: “Bu bola zo'r bo'пти, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi, yetti yashar bola shunday ishni qilami?” — deb xafa bo'lib yotdi. Do'stlarning vaqti xush bo'lib yurdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tdi”, — dedi...

Tasviriy ifodalar ko'proq ot va sifat turkumlariga mansub bo'ladi. Tasviriy ifodalar ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi* – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanishi (*zangori ekran, oynai jahon* – televizor) mumkin.

Nutqimizda shunday chiroyli, jozibador, ohangdor so'zlar borki, ular fikrimizning ta'sirchanligini oshirib, tasviriyligini ta'minlaydi. Bu kabi so'zlar obrazli ifoda bilan amalga oshiriladi:

² A. Omonturdiyev, N. Raimnazarova. Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. Termiz. 2010



“Ey, qalam tebratuvchi aziz qadrdonim, Buhoroi sharifda mundog' befarhezlar hukumatdorlikka minib sizningdek ahli ilmlarga ozor bergan bo'lsalar, ularning ham jazolarini beruvchi Qahhor zuljalol egasi bordir”.

Ingliz tilida misol keltirsak:

“His face was red, the back of his neck overflowed his collar and there had recently been published a second edition of his chin”.

Tasviriy ifoda (perifraza) nutqning rang-barangligini, ta'sirchanligini, badiiyligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan biri deb ham qaraladi. Ma'lum jihatlari bilan mazkur hodisa o'xshatish, metafora, metaforik epitet kabi badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda turadi.

“Internet ommaviy xavotirlar sababchisi bo'lib, bugun shifokorlar, internet – zamonaviy tibbiyotning dushmani degan fikrni qayta-qayta ta'kidlashib, ularning fikricha, ko'pchilik bemorlar kasallik haqida internet tarmog'i ma'lumotlari asosida o'zlariga tashxis qo'yib, mustaqil ravishda davolanishga urinishmoqda”

Ingliz tilida:

“His huge leather chairs were kind to the femurs.”

Tilshunoslikdagi bir hodisa ko'pincha turli mualliflar tomonidan turlicha tushuntiriladi. Bunday holatdan tasviriy ifoda ham mustasno emas. Masalan, tilshunoslarimizdan A.Hojiyev “*dala malikasi*”, “*yaylov bahodirlari*” kabilarni perifraza hodisasiga kiritgan bo'lsa³ R.Qo'ng'urov “*po'lat ot*”, “*zangori kema*”, “*zangori olov*” kabilarni kengaygan metafora deb izohlaydi⁴.

Ingliz tilida perifrazalar alohida til birligi sifatida emas, balki tasviriy vosita sifatida qaraladi. Galperin I. fikriga ko'ra, perifrazalar nutq vaziyatidan kelib chiqadi. Perifraza faqat kontekstdagina muayyan bir ma'noga ega bo'lib, nutq vaziyatidan tashqarida o'z mazmun-mohiyatini yo'qotadi. Agar tasviriy ifoda ma'lum bir nutq jarayonidan tashqarida tushunarli ma'noga ega bo'lsa, u tasviriy vosita sifatida emas, balki sinonim birikma sifatida talqin etiladi. Hammaga birdek oson ang'latadigan perifrazalar an'anaviy yoki til

³ Asomiddinova M. Nutqning ikki ko'rinishi. O'zbek tili va adabiyoti. 1987, № 4. 49 – 53-betlar.

⁴ Qo'ng'urov R.Q. O'zbek tilining tasviriy vositalari. (1977) Toshkent: “Fan”, 1977. –172 b.



tasviriy ifodalari deb hisoblaniladi. Kontekstdan ma'no anglashiladigan perifrazalar esa nutq tasviriy ifodalari deb yuritiladi. Quyida til tasviriy ifodalariga misollar keltirib o'tamiz:

1) *the cap and gown - student body.*

Until the 1950's, graduation caps and gowns were typically gray in the USA.

2) *the fair sex – women.*

Michael always liked to please the fair sex; but they generally laughed at him.

O'zbek tili misolida:

1) *Oq oltin – paxta.*

Oq oltin der donolar, dalaning ko'rki paxta,

Asrang deydi momolar, yurtimiz faxri paxta.

2) *Fasllar kelinchagi – bahor.*

Fasllar kelinchagi bo'lmish bahor tarovati qandayin yoqimli...!

Tasviriy ifodalar stilistik vosita sifatida ma'lum bir so'zni ma'nosini, boshqa bir tasvir bilan fodalab keladi.

What can never be replaced – a mother?

I understand you are poor and wish to earn money by nursing the little boy, my son, who has been so prematurely deprived of what can never be replaced.

Yuqoridagi misolda *o'rnini hech kim egallolmaydigan* (*What can never be replaced*) perifrazasi *ona (mother)* so'zini tasvirlab kelmoqda, ushbu perifraza nutq perifrazasi hisoblanib, kontekst tarkibida aniq ma'no anglatadi, nutqiy vaziyatdan tashqarida asl mazmunini yo'qotib boshqa so'zlarni sifatlovchisi sifatida ishlatilishi mumkin.

to tie the knot – to marry.

After only a short time of marriage, he wasn't prepared to offer advice to other youngsters intending to tie the knot... But, he said, he's looking forward to having a family.

Ushbu gapdagi birikma *to tie the knot* ya'ni *turmush qurmoq* perifrazasi ingliz tilida mashhur perifraza bo'lib, uni an'anaviy ya'ni til perifrazalari tarkibiga kiritish mumkin⁵.

⁵ Galperin I. R. Stylistics. M. Higher school, 1977. pp.125-132



Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy ifodalar til va nutq uslublarining komponenti bo'lib, ularning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Perifrazalar jamiyat ahlining barcha ijtimoiy qatlamlari doirasida ham publisistik, ham ilmiy, ham so'zlashuv uslublarining badiiy-estetik, effekt beruvchi, ta'sir qiluvchi asosiy vositasiga aylangan.

Ingliz va o'zbek tilshunosligida nutqimizning ko'rkam, jozibador, ohangdor bo'lishini ta'minlaydigan tasviriy ifoda bo'yicha turli fikr va g'oyalar mavjudligi, atoqli olimlar tomonidan bu borada turli izlanishlar olib borilganiga qaramay, perifrazalarning nazariy asoslari to'liq ochib berilgan deyish mushkul. Buni davr o'zgarishi, yangi texnologiyalar, yangi atamalar vujudga kelishi bilan bog'lasak bo'ladi. Chunki har bir til birliklari ma'lum bir davr mobaynida o'zgaradi, kengayadi va torayadi. Xorijiy tillar kengroq o'rganilgani sayin, o'zbek tilshunosligida ham yangi-yangi atamalar hamda til va nutq birliklari vujudga keladi. Bu esa yangi tasviriy ifodalar paydo bo'lishidan dalolatdir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. - B. 80.
2. A. Omonturdiyev, N. Raimnazarova. Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. Termiz. 2010
3. Asomiddinova M. Nutqning ikki ko'rinishi. O'zbek tili va adabiyoti. 1987, № 4. 49 – 53-betlar.
4. Qo'ng'urov R.Q. O'zbek tilining tasviriy vositalari. (1977) Toshkent: “Fan”, 1977. – 172 b.
5. Galperin I. R. Stylistics. M. Higher school, 1977. pp.125-132